

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA
AKSIOLOGIK YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM TIZIMI VA
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING ROLI**

doi 10.70728/tech.v2.i03.019

Mamatova Zarena Abdujalilovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lomitlar tarixi” yo‘nalishi 1-kurs doktoranti
e-mail: matovazarena@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'liz tizimining o‘ziga xosligi, unda boshlang‘ich ta'liz o‘qituvchisining roli, aksiologik yondashuvning ta'liz taraqqiyotiga ta’siri, o‘qituvchi qiyofasining shakllanishida ma’naviy qadriyatlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, oila va maktab hamkorligi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, ta'liz, oila, hamkorlik, milliy qadriyatlar

Annotation. This article discusses the uniqueness of the education system, the role of primary school teachers, the impact of the axiological approach on educational development, and the significance of spiritual values in shaping the teacher's image.

Keywords: axiological approach, family and school collaboration, primary school teacher, education, family, cooperation, national values.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности системы образования, роль учителя начальных классов, влияние аксиологического подхода на развитие образования, а также значение духовных ценностей в формировании образа учителя.

Ключевые слова: аксиологический подход, сотрудничество семьи и школы, учитель начальных классов, образование, семья, сотрудничество, национальные ценности.

Ta'liz sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi mavjud. Shu jihatdan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ta'lizni “Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya” ekanligini ta’kidlab, “*Najot – ta'linda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi*”, -deya bejizga aytmadilar va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni aniq ko‘rsatib o‘tdi. Ayniqsa, ta'liz sohasini yanada isloh qilish, ta'liz sifati va samaradorligini ta’minalash bo‘yicha bildirilgan fikrlar e’tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qayerda ta'limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan. Shu maqsadda ta'lizning barcha

yo‘nalishlarida qator o‘zgarishlar bo‘lishi kutilmoqda va bu o‘zgarishlar ta’lim sohasida so‘nggi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan tizimli o‘zgarishlarning navbatdagi ilmiy asoslangan va natijasi kafolatlanayotgan bosqichidir.

Ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi bir necha omillar mavjud bo‘lib, shulardan biri- ta’limga qadriyat sifatida qarab, “Maktab, oila va mahalla hamkorligi” ni rivojlantirish hisoblanadi. Negaki, ta’lim bir kishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon emas, balki ta’lim butun jamiyat va davlat rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi tizim hisoblanadi. Bu tuzilmaning qaysi bir elementida kamchilik uchrasa, darhol uni bartaraf etish choralar birmalikda ko‘rilishi kerak, chunki bir tizimning sustlashishi butun jarayonga salbiy ta’sir etishi barchamizga ayon. Shunday ekan, barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun, eng avvalo, oila- mahalla- maktab, jamiyat va davlat hamkorligini yuqori pog‘onada ko‘rish lozim. Maktab -ta’limning o‘chog‘i, bilimlar maskani. Unda o‘z kasbiga sadoqatli, bilimli, tashabbuskor, Vatani rivoji, xalqining saodatini oily maqsad deya biladigan insofli o‘qituvchigina ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsata oladi. Bugun davlatimiz bunday o‘qituvchilarni qadrlab, ularga har tomonlama ko‘mak bermoqda. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi qiyofasidagi shaxs quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

- O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim;
- Ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi;
- O‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi shart;
- Pedagogika va bola psixologiyasi fanlarini puxta bilishi;
- Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakli, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- Ayniqsa, o‘qituvchi o‘zining individual nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur;

O‘qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Hozirgi kun o‘qituvchisi, eng avvalo, faol, mehnatkash, fidoyi, talabchan, izlanuvchan, davr bilan hamnafas hamda ijodkor bo‘lishi kerak!

Ta’limning yana bir muhim tayanchi bu-oila. Oila jamiyatning asosi, mahalla-milliy qadriyatlar beshigi, negaki ahil xonadonda, ma’rifatli mahallada, insonparvar

jamiyatda zukko yigitlar, oqila qizlar, umr bo‘yi elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan komil farzandlar ulg‘ayadi. Oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo‘g‘in hisoblansa-da, u shaxsni to‘liq tarkib toptira olmaydi. Ana shunda maktab va jamoatchikka ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi, sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta’sir ko‘rsatadi. Oila a’zolarining ma’naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oilada kundan kun kamolga etib borayotgan farzand atalmish ne’mat, eng avvalo, shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an’analariga to‘la amal qilmog‘i, qolaversa, ota-onaning o‘zi farzandiga ibrat bo‘la olishi lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog‘lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalgaga oshirib bo‘lmaydi. Bugun har bir ota-onaning farzandlar tarbiyasi uchun mas’uliyatini va burchini huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yish vaqtি keldi. Haqiqatan ham, har bir ota-ona o‘z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o‘rgatish, kitob o‘qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o‘qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-ona o‘z mas’uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim.

Oilada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi, xususan, jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lgan kelajak avlodni voyaga etkazishda oila ma’naviyatining tutgan o‘rni alohidadir. Oila tarbiyasi bo‘yicha buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida, muqaddas kitoblarimizda o‘ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir. Jumladan, islom ta’limotida farzand tarbiyasi haqida quyidagicha ta’kidlanadi: “ Islomda tarbiya ta’limdan ko‘ra ustunroq va keng qamrovlidir. Chunki tarbiya bolani uyida, ko‘chada, maktabda o‘zini tuta bilish odoblarini, aql bilan ish yuritib, jismini, nafsini o‘ziga bo‘ysundirishdek og‘ir ishni yo‘lga qo‘ydi. Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko‘rsa, shunga tahlid qilib o‘sadi. Oilada ota oljanob keng fe’l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo‘lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg‘amaydigan va muloyim bo‘lmog‘i lozim. Farzandlarimizni sog‘lom e’tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan.

Zeroki, sog‘lom va baquvvat, keng mushohadali, mustaqil fikrga ega farzand har qanday joyda va har qanday vaziyatda o‘z yaqinlariga hamda o‘z yurtiga naf keltiradi. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni yaratuvchi barkamol avlodni

birgalikda tarbiyalash ta’lim tizimi vakillari, qolaversa butun xalqimizning asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqi 20.12.2022
2. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: “O‘qituvchi”, 1996
3. Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” –T.: “ Fan va texnologiya”, 2011
4. Xodjayev B.X. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” –T.:”Sano-standart” nashriyoti, 2017
5. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: TDPU, 1999.
6. Mamatova Z.A.” Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda oila, maktab va mahalla hamkorligining ahamiyati.” “World scientific research journal” international interdisciplinary research journal.